ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 05.06.2026 · Accepted: 25.08.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/9hcgth11

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Yangi O‘zbekiston jamiyati madaniy hayotida o‘zgarishlar dinamikasi (Dynamics of Change in the Cultural Life of New Uzbekistan)

Zulayho Tilavova

Department of Theory and History of Culture,
Institute of Socio-Spiritual Research
under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment,
9 Bobur Street, Yakkasaray District,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: tilavovazulayho07@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada 2016–2026-yillarda O‘zbekiston jamiyatining madaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar va transformatsion jarayonlar tizimli tahlil qilindi. Mavzuning dolzarbligi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida madaniyat sohasining institutsional, huquqiy va texnologik jihatdan izchil yangilanib borayotgani bilan izohlanadi. Ishda sohaning zamonaviy siyosiy-huquqiy asoslari, shuningdek, teatr, muzey, kutubxona hamda madaniyat markazlari faoliyatining statistik dinamikasi 2016–2025-yillarga oid rasmiy ma’lumotlar asosida batafsil o‘rganildi. Tahlil jarayonida kontent-tahlil, qiyosiy va statistik usullar hamda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlarining aholi ma’naviy hayotiga ta’siri, virtual ko‘rgazmalar va elektron xizmatlarning joriy etilishi qiyosiy baholandi. Statistik ma’lumotlar asosida madaniy infratuzilmadagi o‘sish sur’atlari, aholining madaniy tadbirlardagi ishtiroki va hududlararo raqamli imkoniyatlar tengsizligi tahlilga tortildi. Tadqiqot natijalari madaniy transformatsiya turli institutlarda bir xil kechmaganini, ya’ni muassasalar soni ayrim yo‘nalishlarda qisqargan bo‘lsa-da, xizmatlardan foydalanish ko‘lami sezilarli kengayganini ko‘rsatdi. Maqolaning ilmiy yangiligi madaniy transformatsiya jarayonini davlat siyosati, institutsional modernizatsiya, raqamlashtirish va aholining madaniy ishtiroki o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik doirasida yaxlit baholashga urinishda namoyon bo‘ladi. Ishda ilgari surilgan asosiy qoida shundan iboratki, madaniy siyosat samaradorligini muassasalar soni bilangina o‘lchash yetarli emas. Tadqiqot yakunida milliy madaniy merosni asrash, chekka hududlarda madaniyat maskanlarini rivojlantirish hamda raqamli madaniyatni yagona tizimga keltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy makon, madaniy hayot, madaniy infratuzilma, raqamlashtirish, madaniy meros, teatr, muzey, kutubxona, statistik dinamika.

Abstract

The article provides a systematic analysis of the fundamental changes and transformational processes that took place in the cultural life of Uzbek society between 2016 and 2026. The relevance of the topic is explained by the fact that, as a result of the reforms carried out in the country, the sphere of culture has been consistently renewed in institutional, legal and technological terms. The study examines the modern political and legal foundations of the sphere, as well as the statistical dynamics of theatres, museums, libraries and cultural centres, on the basis of official data for 2016–2025. Content analysis, comparative and statistical methods, and a systemic approach were applied. Particular attention is paid to a comparative assessment of the impact of digitalisation on the spiritual life of the population and to the introduction of virtual exhibitions and electronic services. On the basis of statistical data, the rates of growth of cultural infrastructure, public participation in cultural events and interregional digital inequality are analysed. The findings show that cultural transformation has proceeded unevenly across institutions: although the number of establishments has declined in some areas, the scale of use of their services has expanded considerably. In conclusion, evidence-based recommendations and priority directions are formulated for preserving the national cultural heritage, developing cultural facilities in remote areas and integrating digital culture into a single system.

Keywords: cultural space, cultural life, cultural infrastructure, digitalisation, cultural heritage, theatre, museum, library, statistical dynamics.

Аннотация

В статье системно анализируются коренные изменения и трансформационные процессы в культурной жизни общества Узбекистана в 2016–2026 годах. Актуальность темы обусловлена тем, что в результате проводимых в стране реформ сфера культуры последовательно обновляется в институциональном, правовом и технологическом отношении. В ходе исследования подробно изучены современные политико-правовые основы сферы, а также статистическая динамика деятельности театров, музеев, библиотек и культурных центров на основе официальных данных за 2016–2025 годы. Применены контент-анализ, сравнительный и статистический методы, а также системный подход. Проведена сравнительная оценка влияния процессов цифровизации на духовную жизнь населения, а также внедрения виртуальных выставок и электронных услуг. На основе статистических данных проанализированы темпы роста культурной инфраструктуры, участие населения и региональное цифровое неравенство. Результаты показали, что культурная трансформация протекала неравномерно: при сокращении числа учреждений масштабы использования их услуг заметно расширились. В завершение разработаны научно обоснованные рекомендации по сохранению

культурного наследия, развитию объектов культуры в регионах и интеграции цифровой культуры. Научная новизна работы состоит в целостной оценке культурной трансформации как взаимосвязанного процесса государственной политики, институциональной модернизации, цифровизации и культурного участия населения. Основное положение статьи заключается в том, что эффективность культурной политики нельзя измерять только числом учреждений.

Ключевые слова: культурное пространство, культурная жизнь, культурная инфраструктура, цифровизация, культурное наследие, театр, музей, библиотека, статистическая динамика.

Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. XXI asrning ikkinchi choragiga kelib jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida tub transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar sohasining tobora kengayib borishi, urbanizatsiya (shaharsozlik), xalqaro madaniy almashinuv va yangi kommunikatsiya vositalarining paydo bo‘lishi madaniyatning yaratilishi, tarqatilishi va iste’mol qilinish shakllarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda.

Madaniyat sohasi faqat san’at yoki tarixiy meros bilan cheklanmaydi. U jamiyatning qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odat va marosimlari, axloqiy me’yorlari, ilmiy-intellektual faoliyati, ijodkorligi va ijtimoiy muloqot shakllarini ham qamrab oladi. Shu sababli madaniy hayotdagi o‘zgarishlar jamiyatning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Madaniy transformatsiya deganda jamiyatning madaniy qadriyatlari, institutlari, faoliyat shakllari va madaniy mahsulotlarni yaratish hamda iste’mol qilish mexanizmlarining vaqt davomida o‘zgarishi tushuniladi. Ushbu jarayonni shartli ravishda ichki va tashqi transformatsiya yo‘nalishlariga ajratish mumkin: a) ichki transformatsiya — jamiyatning o‘zida yangi qadriyatlar, yangi ijod shakllari,

yangi avlodning madaniy ehtiyojlari va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi; b) tashqi transformatsiya — globallashuv, xalqaro madaniy almashinuv, internet va raqamli platformalar, xorijiy madaniyatlarning ta'siri hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda 2016-yildan keyin madaniyat siyosatining yangi bosqichi boshlandi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan «Yangi O'zbekiston» atamasi jamiyatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarning tayanch g'oyasini ifodalovchi tushunchaga aylandi. Shu g'oya asosida «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari» shiori shakllanayotgani ham bejiz emas. Yangi O'zbekiston, avvalo, xalqimiz milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yganini, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganini va oldimizda ko'plab yangi imkoniyatlar paydo bo'lganini anglatadigan tushunchadir. 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish jarayoniga yangi turtki bergan bo'lsa, madaniyat va san'at sohasiga oid alohida davlat qarorlari mazkur yo'nalishdagi institutsional o'zgarishlarni jadallashtirdi [1].

2017-yil 31-maydagi Prezident qarorida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, zamonaviy madaniyat muassasalarini barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [2]. Shu jihatdan 2016–2026-yillarni O'zbekiston madaniy hayotining institutsional modernizatsiyasi, huquqiy mustahkamlanishi va raqamli transformatsiyasi kuchaygan davr sifatida tavsiflash mumkin.

Tadqiqotning maqsadi 2016–2026-yillarda O'zbekiston madaniy hayotidagi asosiy o'zgarishlarni aniqlash, ularning siyosiy-huquqiy, institutsional va raqamli omillarini tahlil qilish hamda ta'sirini baholashdan iborat. Mazkur maqsad asosida madaniyat sohasidagi islohotlarning huquqiy asoslarini o'rganish, asosiy madaniy

muassasalar faoliyati dinamikasini tahlil qilish, muassasalar soni va foydalanish ko‘rsatkichlarini qiyoslash, raqamlashtirish ta’sirini baholash hamda madaniy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2016–2025-yillarga oid madaniyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha rasmiy ma’lumotlari tashkil etdi. Statistik va qiyosiy tahlil orqali madaniyat muassasalari faoliyatidagi o‘zgarishlar, kontent-tahlil orqali normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni o‘rganildi. Tizimli yondashuv madaniy transformatsiyani davlat siyosati, institutsional modernizatsiya, raqamlashtirish va madaniy ishtirokning o‘zaro bog‘liq jarayoni sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqot 2016–2026-yillarni qamrab olib, miqdoriy tahlil 2016–2025-yillardagi yakunlangan statistik ma’lumotlarga asoslandi.

2016-yilda O‘zbekistonda 53 ta professional teatr faoliyat yuritgan. 2017–2019-yillarda ularning soni 50 ta atrofida bo‘lgan. 2020-yilda 49 ta teatr qayd etilgan, 2021–2022-yillarda 50 ta, 2023–2024-yillarda esa 48 ta teatr faoliyat yuritgan. 2025-yilga kelib professional teatrlar soni 41 tani tashkil etgan. Biroq teatrlar sonining kamayishi madaniy faollikning mutanosib ravishda pasayganligini anglatmaydi. 2016-yilda 10 563 ta spektakl namoyish etilgan bo‘lsa, 2019-yilda ularning soni 11 142 taga yetgan. COVID-19 pandemiyasi sharoitida 2020-yilda ko‘rsatkich 5 486 tagacha tushgan, 2023-yilda esa 12 981 taga yetgan. 2025-yilda 11 906 ta spektakl namoyish etilgan [3].

Bolalar va yosh tomoshabinlar uchun spektakllar soni 2016-yildagi 4 224 tadan 2023-yilda 6 759 taga yetgan, 2025-yilda esa 5 630 tani tashkil etgan [3]. Ushbu dinamika pandemiyaning teatr faoliyatiga keskin qisqa muddatli ta’sir ko‘rsatganini, keyinchalik esa spektakllar soni bo‘yicha sezilarli tiklanish yuz berganini ko‘rsatadi. Muzeylar jamiyatning tarixiy xotirasi va madaniy identifikatsiyasini saqlashda muhim institut hisoblanadi. 2016-yilda muzeylarga

5,3712 mln tashrif qayd etilgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 8,1476 mln ga yetgan. 2019-yilda 7,7778 mln tashrif qayd etilgan. COVID-19 pandemiyasi sababli 2020-yilda tashriflar soni 1,5158 mln gacha kamaygan. Keyingi yillarda ko‘rsatkich tiklanib, 2021-yilda 5,1 mln, 2022-yilda 5,6738 mln, 2023-yilda 5,7112 mln, 2024-yilda 4,7826 mln va 2025-yilda 5,4749 mln tashrifni tashkil etgan [4]. Muzeylarning asosiy fondidagi eksponatlar sonida esa uzoq muddatli o‘sish kuzatilgan. 2016-yilda muzey fondlarida 2,0607 mln eksponat mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 2,6570 mln ga yetgan [5]. Bu muzey fondlarining miqdoriy jihatdan kengayganini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish sharoitida kutubxonalarning funksional mazmuni ham o‘zgarib bormoqda. An’anaviy kitob fondlariga asoslangan kutubxonalar bilan bir qatorda axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari faoliyati kengaymoqda. 2016-yilda O‘zbekistonda kutubxonalar, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining umumiy soni 11 566 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 17 763 taga yetgan. Demak, 2016–2025-yillar davomida mazkur ko‘rsatkich qariyb 54 foizga oshgan [6].

Foydalanuvchilar sonida ham sezilarli o‘zgarish kuzatilgan. 2016-yilda ushbu muassasalardan 7,3 mln kishi foydalangan bo‘lsa, 2025-yilda foydalanuvchilar soni 13,1 mln kishiga yetgan [6]. Mazkur dinamika kutubxona va axborot markazlarining jamiyatdagi rolini faqat muassasalar soni orqali emas, balki ulardan foydalanish ko‘lami orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Madaniyat markazlari, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda aholining kundalik madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi. 2016-yilda O‘zbekistonda 887 ta madaniyat markazi mavjud bo‘lgan. 2019-yilda ularning soni 833 tagacha, 2020-yilda 806 tagacha, 2021-yilda esa 798 tagacha kamaygan. 2022-yildan boshlab ma’lum tiklanish kuzatilgan: markazlar soni 2022-yilda 824 ta, 2023-yilda 836 ta, 2024-yilda 837 ta va 2025-yilda 840 tani tashkil etgan [7].

2016–2026-yillarda O‘zbekiston jamiyatining madaniy hayotida sezilarli transformatsion jarayonlar yuz berdi. Tahlil natijalari ushbu o‘zgarishlar faqat miqdoriy o‘sish bilan cheklanmaganini, balki turli madaniy institutlarda o‘ziga xos yo‘nalish va sur’atlarda kechganini ko‘rsatadi. Xususan, professional teatrlar sonining kamayishiga qaramay, pandemiyadan keyingi davrda spektakllar sonining qayta tiklanishi madaniy faollikni faqat muassasalar soni bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pandemiya davrida muzeylarga tashriflar keskin qisqargan bo‘lsa-da, keyingi yillarda ularning izchil tiklanishi, shuningdek, muzey fondlaridagi eksponatlar sonining ortib borishi mamlakatda madaniy merosni saqlash, boyitish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ishlar izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Kutubxona va axborot-kutubxona markazlari faoliyatidagi o‘zgarishlar ham madaniy transformatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ularning soni qariyb 54 foizga, foydalanuvchilar soni esa 7,3 milliondan 13,1 million kishiga oshgani axborot va madaniy xizmatlardan foydalanish ko‘lami sezilarli ravishda kengayganini ko‘rsatadi. Madaniyat markazlari sonida ma’lum davrda pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022-yildan boshlab tiklanish tendensiyasining namoyon bo‘lishi ushbu sohada institutsional rivojlanish jarayoni davom etayotganini tasdiqlaydi. Bunda faqat infratuzilmaning mavjudligi emas, balki ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati, aholining ulardan foydalanish imkoniyati va madaniy hayotdagi real ishtiroki ham muhim baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, yangilanayotgan O‘zbekistondagi madaniy transformatsiyani madaniy merosni asrash va boyitish, zamonaviy madaniy infratuzilmani rivojlantirish, raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda aholining madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq o‘zaro uzviy jarayon sifatida baholash mumkin. Kelgusida madaniy siyosat samaradorligini aniqlashda muassasalar soni singari an’anaviy miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir

qatorda xizmatlar sifati, yoshlar qamrovi, hududlar o‘rtasidagi tenglik, auditoriya faolligi, madaniy xizmatlarning ommabopligi va ulardan raqamli shaklda foydalanish darajasi kabi sifat ko‘rsatkichlariga ham alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan 2016–2026-yillardagi o‘zgarishlar O‘zbekistonda madaniyat sohasining nafaqat institutsional, balki mazmuniy va funksional jihatdan ham yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-3107036
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. URL: https://president.uz/oz/lists/view/584
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atning asosiy ko‘rsatkichlari: 2025-yil uchun press-reliz. 30.07.2026. URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/madaniyat-va-sanat-lotin_p87506.pdf
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati: 2024-yil uchun press-reliz. 28.07.2025. URL: https://stat.uz/img/images/madaniyat-press-reliz-uzb-lotin_p22090.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati: 2023-yil. URL: https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/madaniyatpressreliz2023uz.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda kutubxonalar va ulardan foydalanuvchilar soni. URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/65024-zbekistonda-kutubkhonalar-va-ulardan-fojdalanuvchilar-soni-ancha-2
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat muassasalarining asosiy ko‘rsatkichlari. URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10531-2020-yilda-o-zbekiston-respublikasida-madaniyat-muassasalarining-asosiy-ko-rsatkichlari
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprel. 53-modda. – Toshkent, 2023.

References

1. President of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida* [On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan], Decree No. PF-4947, February 7, 2017. *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*. https://lex.uz/uz/docs/-3107036. (in Uzbek)
2. President of the Republic of Uzbekistan. *Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida* [On Measures for the Further Development and Improvement of the Sphere of Culture and Arts], Resolution No. PQ-3022, May 31, 2017. https://president.uz/oz/lists/view/584. (in Uzbek)

3. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atning asosiy ko‘rsatkichlari: 2025-yil uchun press-reliz* [Key Indicators of Culture and Arts in the Republic of Uzbekistan: Press Release for 2025]. July 30, 2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/madaniyat-va-sanat-lotin_p87506.pdf. (in Uzbek)
4. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati: 2024-yil uchun press-reliz* [Activities of Cultural and Arts Institutions in the Republic of Uzbekistan: Press Release for 2024]. July 28, 2025. https://stat.uz/img/images/madaniyat-press-reliz-uzb-lotin_p22090.pdf. (in Uzbek)
5. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati: 2023-yil* [Activities of Cultural and Arts Institutions in the Republic of Uzbekistan: 2023]. https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/madaniyatpressreliz2023uz.pdf. (in Uzbek)
6. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekistonda kutubxonalar va ulardan foydalanuvchilar soni* [Number of Libraries and Their Users in Uzbekistan]. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/65024-zbekistonda-kutubkhonalar-va-ulardan-fojdalanuvchilar-soni-ancha-2. (in Uzbek)
7. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *O‘zbekiston Respublikasida madaniyat muassasalarining asosiy ko‘rsatkichlari* [Key Indicators of Cultural Institutions in the Republic of Uzbekistan]. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10531-2020-yilda-o-zbekiston-respublikasida-madaniyat-muassasalarining-asosiy-ko-rsatkichlari. (in Uzbek)
8. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. New ed. Tashkent, 2023. Article 53. (in Uzbek)